Ma'lumotlarni yig'ish usullari birlamchi, ya'ni mazkur tadqiqot natijalari va ikkilamchi, jumladan, hukumat ma'lumotlari, akademik tadqiqot ma'lumotlari, tadqiqot nashrlari (akademik jurnallar, kitoblar, hisobotlar va boshqalar) hisoblanadi. Creswellning (2014) ta'kidlashicha, ma'lumot to'plash usullari tadqiqot maqsadlarida ma'lumot to'plash uchun ishlatalidigan usullarni anglatadi [8].

Statistik tahlillar sifatida tavsiflovchi statistika, ko'p omilli regressiya, chiziqli regressiya, korrelyatsiya matriksasi va grafikalardan foydalanildi. Statistik tahlillar Stata IC/15.0 dasturida amalga oshirildi.

Tadqiqot o'zgaruvchilari sifatida quyidagi o'zgaruvchilar tanlab olindi (1-rasm):


*egdi* - elektron hukumat rivojlanishi indeksi (mustaqil);

*epi* - elektron ishtirok etish indeksi (mustaqil);

*sd* - ijtimoiy rivojlanish indeksi (bog'liq);

*spandl* - ijtimoiy himoya-mehnat (bog'liq).

*egdi* va *epi* - mustaqil o'zgaruvchilar, *sd* va *spandl* – bog'liq o'zgaruvchilar. Ma'lumotlar vaqtli qatorlar bo'lib, kuzatishlar soni 11 tani tashkil etadi.



1-rasm. Tadqiqot modeli

#### Tahlil va natijalar:

Tadqiqot metodologiyasi bo'limida ta'kidlanganidek, 2003-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda to'rtta o'zgaruvchilar va 11 ta kuzatishlar soni mavjud. *egdi* elektron hukumat rivojlanishi indeksi bo'lib, hukumatlar tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishni o'lchaydigan indeksdir. U Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy ishlar departamenti (UNDESA) tomonidan nashr etiladigan va BMTning Elektron hukumat so'rovnomasining bir qismidir [9]. *epi* - BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy ishlar departamenti (UNDESA) tomonidan BMTning Elektron hukumat so'rovnomasi doirasida nashr etiladigan yana bir indeks hisoblanadi. EPI hukumatlarning davlat siyosatini ishlab chiqish jarayonlarida fuqarolar ishtirokinini ta'minlash va osonlashtirish uchun AKTdan qanchalik foydalanishini o'lchaydi [10]. *sd* - ijtimoiy rivojlanish va *spandl* - ijtimoiy himoya-mehnat ko'rsatkichlari bo'lib, Jahon banki ko'rsatkichlari hisoblanadi (1-jadval).

#### 1-jadval

##### O'zgaruvchilar ro'yxati

Yil	egdi	epi	sd	spandl
2003	174	151	75	61
2004	81	123	75	61
2005	79	105	74	60
2008	109	98	73	59
2010	87	36	73	58
2012	91	60	73	58
2014	100	71	73	57





► Kambag'allikni qisqartirish

2016	80	47	73	57
2018	81	59	73	57
2020	87	46	72	56
2022	69	55	73	56

2-jadvaldagи tavsiflovchi statistikaga ko'ra, egdi o'zgaruvchining o'rtachasi qiymati-94, epi o'zgaruvchining o'rtachasi qiymati-77, sd o'zgaruvchining o'rtacha qiymati-73 va spandl o'zgaruvchining o'rtacha qiymati-58 ga teng.

2-jadval

Tavsiflovchi statistika

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Egdi	11	94.364	28.549	69	174
Epi	11	77.364	36.729	36	151
Sd	11	73.364	.924	72	75
Spandl	11	58.182	1.834	56	61

Ko'p omilli regressiya tahlillari bir nechta aniq bashorat qiluvchi o'zgaruvchilar (x) asosida bog'liq o'zgaruvchini (y) bashorat qilish uchun tanlanadi. Ko'p omilli regressiya tahlili - bu ikki yoki undan ortiq mustaqil o'zgaruvchilar va qaram o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish uchun ishlatalidigan statistik usul. U ko'pincha ijtimoiy fanlar, iqtisod va boshqa sohalarda qo'llaniladi, bu yerda tadqiqotchilar ma'lum bir natijaga ta'sir qiluvchi omillarni tushunishni xohlashadi [11].

3-jadvaldan ko'rinish turibdiki, modelning p-qiyomi 0,002 ga teng, bu esa  $1N_0$  gipotezani rad etishga asos bo'ladi, ya'ni, sd-ijtimoiy rivojlanish o'zgaruvchisi bilan egdi-elektron hukumat rivojlanishi va epi-elektron ishtirot etish o'zgaruvchilari o'rtasida statistik sezilarli bog'liqliklar mavjud.

3-jadval

sd-“Ijtimoiy rivojlanish” o'zgaruvchining ko'p omilli regressiya tahlili

sd	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
egdi	-.006	.007	-0.89	.402	-.022	.01	
epi	.025	.005	4.63	.002	.013	.038	***
Constant	71.997	.517	139.24	0	70.804	73.189	***
Mean dependent var	73.364			SD dependent var	0.924		
R-squared	0.789			Number of obs	11		
F-test	14.930			Prob > F	0.002		
Akaike crit. (AIC)	17.340			Bayesian crit. (BIC)	18.534		

\*\*\*  $p<.01$ , \*\*  $p<.05$ , \*  $p<.1$

Modelning p-qiyomi 0,05 dan kam, ya'ni model umumiy ahamiyatli hisoblanadi. Determinatsiya koeffitsientining ko'rsatkichi (R-kvadrat) 0,79 ni tashkil qiladi va har ikkala mustaqil o'zgaruvchi sd-ijtimoiy rivojlanish o'zgaruvchisining 79 % ni izohlaydi degan xulosaga kelish mumkin va natijada quyidagi iqtisodiy-matematik model shakllantirildi:

$$sd = 71.99 - 0.006 \text{egdi} + 0.025 \text{epi} \quad (1)$$

Modelning iqtisodiy mazmuni quyidagicha: egdi-elektron hukumat rivojlanishi indeksining 1 birlikka oshishi sd-ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichining 0,006 birlikka kamayishiga olib keladi, epi-elektron ishtirot etish indeksining 1 birlikka oshishi sd-ijtimoiy rivojlanish indeksining 0,025 birlikka oshishiga olib keladi.

Keyingi bog'liq o'zgaruvchi spandl-ijtimoiy himoya-mehnat o'zgaruvchisi bo'lib, ko'p omilli regressiya natijalari 4-jadvalda tasvirlangan. Unga ko'ra, modelning p-qiyomi 0,002 ga teng, bu  $2N_0$  gipotezani rad etilganligini bildiradi. Ya'ni, spandl-ijtimoiy himoya-mehnat o'zgaruvchisi bilan egdi-elektron hukumat rivojlanishi va epi-elektron ishtirot etish o'zgaruvchilari o'rtasida statistik sezilarli bog'liqlik mavjud.

Modelning p-qiyomi 0,05 dan kam, bu model umumiy ahamiyatli deb hisoblanadi. Determinatsiya koeffitsienti (R-kvadrat) ko'rsatkichi 0,79 ni tashkil qiladi va shundan xulosa qilish mumkinki, ikkala



mustaqil o‘zgaruvchilar birgalikda *spandl*-ijtimoiy himoya-mehnat o‘zgaruvchisining 79 % ni izohlab keladi. Ushbu jadvalga muvofiq quyidagi iqtisodiy-matematik model tuzildi (2):

$$spandl = 55.196 - 0.008egdi + 0.048epispandl = 55.196 - 0.008egdi + 0.048epi \quad (2)$$

Modelning iqtisodiy mazmuni quyidagicha: *egdi*-elektron hukumat rivojlanishi o‘zgaruvchisining 1 birlikka oshishi *spandl*-ijtimoiy himoya-mehnat o‘zgaruvchisining 0,008 birlikka kamayishiga hamda *epi*-elektron ishtirok etish indeksining 1 birlikka oshishi *spandl*-ijtimoiy himoya-mehnat o‘zgaruvchisining 0,048 birlikka oshishiga olib keladi (4-jadval).

Ikkita ko‘p omilli regressiyalardan tashqari har bir mustaqil o‘zgaruvchini har bir bog‘liq o‘zgaruvchiga ta’sirini aniqlash maqsadida chiziqli regressiya tahlillarini ham o‘tkazildi. Kutner va boshqalarning (2005) fikricha, oddiy chiziqli regressiya tahlili ikkita uzlusiz o‘zgaruvchi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish uchun ishlatalidigan statistik usul bo‘lib, bu yerda bir o‘zgaruvchi mustaqil o‘zgaruvchi, ikkinchisi esa bog‘liq o‘zgaruvchi hisoblanadi. Oddiy chiziqli regressiyadan maqsad mustaqil o‘zgaruvchi va qaram o‘zgaruvchi o‘rtasidagi chiziqli munosabatni topishdir [12].

#### 4-jadval

#### **spandl-“Ijtimoiy himoya-mehnat” o‘zgaruvchining ko‘p omilli regressiya tahlili**

Spandl	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf]	Interval]	Sig
Egdi	-.008	.014	-0.58	.581	-.04	.024	
Epi	.048	.011	4.50	.002	.024	.073	***
Constant	55.196	1.018	54.25	0	52.85	57.542	***
Mean dependent var	58.182				SD dependent var		
R-squared	0.792				Number of obs		
F-test	15.242				Prob > F		
Akaike crit. (AIC)	32.233				Bayesian crit. (BIC)		

\*\*\*  $p<.01$ , \*\*  $p<.05$ , \*  $p<.1$

Modelning p-qiymati 0,143 ni tashkil qiladi, bu model umumiyligi ahamiyatga ega emasligini anglatadi. *edgi* o‘zgaruvchisi koeffitsientining p-qiymati 0,05 dan katta, shuning uchun  $3N_0$  gipoteza rad etilmaydi. Ya’ni, ijtimoiy rivojlanish va elektron hukumat rivojlanishi indeksi o‘zgaruvchilari o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik yo‘q. Determinatsiya koeffitsienti (R-kvadrat) ko‘rsatkichi 0,22 ni tashkil etadi, ya’ni bu qiymatdan elektron hukumat rivojlanishi indeksi o‘zgaruvchisi ijtimoiy rivojlanish o‘zgaruvchisining 22 % ni tushuntiradi degan xulosaga kelish mumkin (5-jadval).

#### 5-jadval

#### **Chiziqli regressiya**

Sd	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf]	Interval]	Sig
Egdi	.015	.01	1.61	.143	-.006	.037	
Constant	71.922	.935	76.96	0	69.808	74.036	***
Mean dependent var	73.364				SD dependent var		
R-squared	0.223				Number of obs		
F-test	2.579				Prob > F		
Akaike crit. (AIC)	29.668				Bayesian crit. (BIC)		

\*\*\*  $p<.01$ , \*\*  $p<.05$ , \*  $p<.1$

Keyingi bog‘liq o‘zgaruvchi *sd*-ijtimoiy rivojlanish bo‘lib, chiziqli regressiyaning natijalari 6-jadvalda tasvirlangan. Ko‘rsatilanidek, *epi*-elektron ishtirok etish o‘zgaruvchisi koeffitsientining p-qiymati 0,05 dan kam; shu sababli  $4N_0$  gipoteza rad etiladi. Ya’ni, ijtimoiy rivojlanish va elektron ishtirok etish indeksi o‘zgaruvchilari o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjud.





## ► Kambag'allikni qisqartirish

Modelning p-qiymati 0,00 ga teng, ya'ni model umumiyligi ahamiyatli hisoblanadi. Determinatsiya koeffitsientining ko'rsatkichi (R-kvadrat) 0,77 ni tashkil qiladi, ya'ni elektron ishtirok etish indeksi o'zgaruvchisi ijtimoiy rivojlanish o'zgaruvchisining 77 % ni izohlaydi degan xulosaga kelish mumkin. Ushbu jadvalga muvofiq iqtisodiy-matematik model quyidagicha shakllantirildi (3):

$$sd = 71.657 + 0.022epi \quad (3)$$

Modelning iqtisodiy ma'nosi quyidagicha: elektron ishtirok etish indeksining 1 birlikka oshishi ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichining 0,022 birlikka oshishiga olib keladi (6-jadval).

## 6-jadval

### Chiziqli regressiya

Sd	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Epi	.022	.004	5.46	0	.013	.031	***
Constant	71.657	.343	208.80	0	70.881	72.434	***
Mean dependent var		73.364	SD dependent var			0.924	
R-squared		0.768	Number of obs			11	
F-test		29.787	Prob > F			0.000	
Akaike crit. (AIC)		16.370	Bayesian crit. (BIC)			17.165	

\*\*\*  $p < .01$ , \*\*  $p < .05$ , \*  $p < .1$

7-jadvalga ko'ra, modelning p-qiymati 0,104, ya'ni model umumiyligi ahamiyatli hisoblanmaydi. edgi ko'rsatkichining p-qiymati 0,05 dan katta, shu sababli  $5N_0$  gipoteza rad etilmaydi. Ya'ni, ijtimoiy himoya-mehnat va elektron hukumat rivojlanishi indeksi o'zgaruvchilar o'rtasida sezilarli bog'liqlilik mavjud emas. Determinatsiya koeffitsienti ko'rsatkichi (R-kvadrat) 0,27 ni tashkil etadi, bundan elektron hukumat rivojlanishi indeksining o'zgaruvchisi ijtimoiy himoya-mehnat o'zgaruvchisining 27 % ni tushuntiradi degan xulosaga kelish mumkin (7-jadval).

## 7-jadval

### Chiziqli regressiya

Spandl	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Egdi	.033	.018	1.81	.104	-.008	.075	
Constant	55.053	1.801	30.56	0	50.978	59.127	***
Mean dependent var		58.182	SD dependent var			1.834	
R-squared		0.266	Number of obs			11	
F-test		3.269	Prob > F			0.104	
Akaike crit. (AIC)		44.103	Bayesian crit. (BIC)			44.899	

\*\*\*  $p < .01$ , \*\*  $p < .05$ , \*  $p < .1$

epi o'zgaruvchisi koeffitsientining p-qiymati 0,00, natijada  $6N_0$  gipotezasi rad etiladi. Ya'ni, ijtimoiy himoya-mehnat va elektron ishtirok etish indeksi o'zgaruvchilar o'rtasida sezilarli bog'liqlilik mavjud.

Modelning p-qiymati 0,00 ga teng, ya'ni model umumiyligi ahamiyatli hisoblanadi. Determinatsiya koeffitsientining ko'rsatkichi (R-kvadrat) 0,78 ni tashkil qiladi, ya'ni elektron ishtirok etish indeksi o'zgaruvchisi ijtimoiy himoya-mehnat o'zgaruvchisining 77 % ni izohlaydi. Ushbu jadvalga muvofiq quyidagi iqtisodiy-matematik model yaratildi (4):

$$spndl = 54.762 + 0.044epispndl = 54.762 + 0.044epi \quad (4)$$

Modelning iqtisodiy ma'nosi quyidagicha: elektron ishtirok indeksining 1 birlikka oshishi ijtimoiy himoya-mehnat ko'rsatkichining 0,044 birlikka oshishiga olib keladi (8-jadval).



### Chiziqli regressiya

	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Epi	.044	.008	5.71	0	.027	.062	***
Constant	54.762	.658	83.27	0	53.275	56.25	***
Mean dependent var	58.182	SD dependent var				1.834	
R-squared	0.784	Number of obs				11	
F-test	32.575	Prob > F				0.000	
Akaike crit. (AIC)	30.679	Bayesian crit. (BIC)				31.474	

\*\*\*  $p < .01$ , \*\*  $p < .05$ , \*  $p < .1$

Ushbu tadqiqot ishida korrelyatsiya testidan ham foydalanildi Pearson, K. (1900) fikricha, korrelyatsiya testi ikki yoki undan ortiq o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikning kuchi va yo‘nalishini aniqlash uchun qo‘llaniladigan statistik usuldir. Korrelyatsiya testlari o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘lanishni o‘rganish uchun ishlatalishi mumkin, ammo ular sababchi bog‘liqlikni anglatmaydi [13].

9-jadvaldan ko‘rinib turibdiki,  $sd$  va  $egdi$  o‘zgaruvchilar o‘rtasida past ijobjiy va ahamiyatli bo‘lмаган bog‘liqlik mavjud ( $r = 0,472$ ,  $p = 0,143$ ),  $spandl$  va  $egdi$  o‘zgaruvchilari o‘rtasida o‘rtacha va sezilarli bo‘lмаган ijobjiy bog‘liqlik mavjud ( $r = 0,516$ ,  $p = 0,104$ ) va bog‘liq o‘zgaruvchilar hamda  $epi$  o‘zgaruvchisi o‘rtasida yuqori ijobjiy va muhim bog‘liqliklar mavjud ( $r = 0,876$ ,  $p = 0,000$ ,  $r = 0,885$ ,  $p = 0,000$ ).


9-jadval

### Juftlik korrelyatsiyasi

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)
(1) egdi	1.000			
(2) epi	0.662*	1.000		
(3) sd	0.472	0.876*	1.000	
(4) spandl	0.516	0.885*	0.901*	1.000

\*\*\*  $p < .01$ , \*\*  $p < .05$ , \*  $p < .1$

2-rasmda o‘zgaruvchilarning korrelyatsiya tahlil natijalari grafik matritsa ko‘rinishida taqdim etilgan.



2-rasm. Mustaqil va bog‘liq o‘zgaruvchilarning korrelyatsion grafik matritsasi





## ► Kambag'allikni qisqartirish

10-jadvalda mazkur maqolaning kirish qismida tasvirlangan nol gipotezalar natijalari tasvirlangan.

### 10-jadval

#### Tadqiqot gipotezalarining natijalari

Gipoteza	Ma'nosি	p-qiymati	Natija
$1N_0$	<i>sd</i> va <i>egdi</i> hamda <i>epi</i> o'zgaruvchilar o'rtasida statistik ahamiyatli bog'liqlik yo'q	0,002	Rad etildi
$2N_0$	<i>spandl</i> va <i>egdi</i> hamda <i>epi</i> o'zgaruvchilar o'rtasida statistik ahamiyatli bog'liqlik yo'q	0,002	Rad etildi
$3N_0$	<i>sd</i> va <i>egdi</i> o'zgaruvchilari o'rtasida statistik ahamiyatli bog'liqlik yo'q	0,143	Rad etilmadi
$4N_0$	<i>sd</i> va <i>epi</i> o'zgaruvchilari o'rtasida statistik ahamiyatli bog'liqlik yo'q	0,000	Rad etildi
$5N_0$	<i>spandl</i> va <i>egdi</i> o'zgaruvchilari o'rtasida statistik ahamiyatli bog'liqlik yo'q	0,104	Rad etilmadi
$6N_0$	<i>spandl</i> va <i>epi</i> o'zgaruvchilari o'rtasida statistik ahamiyatli bog'liqlik yo'q	0,000	Rad etildi

Mazkur maqolaning muhokama qismida kirish qismida nazarda tutilgan tadqiqot savollariga atroficha javoblar keltirilgan. Unga ko'ra, tadqiqotning birinchi savoli "Elektron hukumat rivojlanishi va elektron ishtirok etish omillarining mamlakatdagi ijtimoiy rivojlanish va ijtimoiy himoya-mehnat omillariga ta'siri qanday?". Yuqoridagi tahlill natijalariga ko'ra, elektron hukumat rivojlanishi va elektron ishtirok etish omillari mamlakatdagi ijtimoiy rivojlanish va ijtimoiy himoya-mehnat omillari ko'rsatkichlariga 77 % ta'sir ko'rsatadi.

Ingeborg D. Brouwer va Emma J. Woodlar (2018) tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirish va yetkazib berishni qo'llab-quvvatlash uchun raqamli texnologiyalar salohiyatini muhokama qilingan. Mualliflarning ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalar kam va o'rta daromadli mamlakatlarda ijtimoiy himoya dasturlari oldida turgan ayrim muammolarni, masalan, cheklangan ma'muriy imkoniyatlar, tranzaksiya xarajatlarining yuqoriligi va zaif axborot tizimlarini yengib o'tishga yordam beradi [14]. BMTning taraqqiyot dasturi (2021) inklyuziv raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun raqamli ijtimoiy himoya imkoniyatlarini o'rganadi. Dasturda raqamli ijtimoiy himoya "ijtimoiy himoya dasturlarini yanada samaraliroq va inklyuziv tarzda amalga oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish" deb ta'riflanadi. Dasturda ta'kidlanishicha, raqamli ijtimoiy himoya an'anaviy ijtimoiy himoya dasturlari oldida turgan ayrim muammolarni, masalan, cheklangan ma'muriy imkoniyatlar, yuqori tranzaksiya xarajatlari va zaif axborot tizimlari [15] kabi muammolarni yengishga yordam beradi.

Mazkurt tadqiqotning ikkinchi savoli "Ijtimoiy rivojlanish va ijtimoiy himoya-mehnat o'zgaruvchilari uchun muhim iqtisodiy-matematik modellar mavjudmi?". Yuqoridagi tahlillarga ko'ra, to'rtta iqtisodiy-matematik modellar mavjud bo'lib, ularning p-qiymati 0,05 dan kichik bo'lganligi sababli, barcha modellar ahamiyatli hisoblanadi. (1) va (2) modellar ko'p omilli regressiya tahlillari asosida hamda (3) va (4) modellar chiziqli regressiya tahlillari asosida ishlab chiqildi.

Ushbu tadqiqotning so'nggi savoli "Tadqiqotdagagi elektron hukumat rivojlanishi, elektron ishtirok etish, ijtimoiy rivojlanish va ijtimoiy himoya-mehnat omillari o'rtasidagi bog'liqlik qanday?". Elektron hukumat rivojlanishi va elektron ishtirok etish indeksini bog'liq o'zgaruvchilar bilan solishtiradigan bo'lsak, faqat elektron ishtirok etish indeksi omili bog'liq o'zgaruvchilar bilan yuqori ijobiy va muhim munosabatlarga egaligi aniqlandi. Bog'liq o'zgaruvchilar, ya'ni ijtimoiy rivojlanish va ijtimoiy himoya-mehnat omillari o'zar juda yuqori ijobiy va muhim munosabatlarga ega. Aksincha, elektron hukumat rivojlanishi va elektron ishtirok etish indeksi omillari o'rtasida o'rta darajada ijobiy va ahamiyatli munosabatlar aniqlandi.

#### Xulosa va takliflar:

Raqamli rivojlanish muayyan ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qiluvchi, yanada murakkab raqamli ilovalar va xizmatlarni ishlab chiqishgacha bo'lgan turli shakllarni o'z ichiga oladi. Masalan, raqamli texnologiyalar tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, ta'llim va kadrlar tayyorlashni yaxshilash, elektron tijorat va moliyaviy inklyuzivlikni osonlashtirish va fuqarolarning boshqaruvdagi ishtirokini rag'batlantirishda foydalaniladi.



Raqamli rivojlanish bu — ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutuvchi keng tushuncha hisoblanadi. Bu atama elektron hukumat, elektron sog‘liqni saqlash, elektron ta’lim, elektron tijorat va boshqalarni o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli ilovalardan iborat. Raqamli rivojlanishning maqsadi xizmatlarga kirishni yaxshilash, tengsizlikni kamaytirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishdir.

Yuqoridaq natijalar mamlakatning raqamli rivojlanishi O‘zbekiston ijtimoiy sohasida eng muhim rol o‘ynashi mumkinligiga kuchli dalildir. Raqamli rivojlanish va davlat ijtimoiy himoya tizimlari o‘rtasidagi yuqori o‘zarbo‘ bog‘liqlik tufayli davlat raqamli iqtisodiyotni rivojlanishiga qaratilgan strategik islohotlarni davom ettirishi ahamiyatli bo‘lib, bundan ko‘zlangan maqsadlardan biri kuchli ijtimoiy himoya sektorini yaratishlikdir.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fayzieva, M. et al. (2023). The Study of the Impact of the Digital Economy on the Growth of E-Government Services in Uzbekistan. In: Koucheryavy, Y., Aziz, A. (eds) Internet of Things, Smart Spaces, and Next Generation Networks and Systems. NEW2AN 2022. Lecture Notes in Computer Science, vol 13772. Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-031-30258-9\\_18](https://doi.org/10.1007/978-3-031-30258-9_18)
2. Heeks, R. (2008). ICT4D 2.0: The next phase of applying ICT for international development, Computer, 2008, p.26-33, <https://ieeexplore.ieee.org/abstract/document/4491933>
3. Avgerou, C. (2008). Information Systems in Developing Countries: A Critical Research Review, Journal of Information Technology, 2008, p.317-327, <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1057/jit.2008.21>
4. International Labour Organization. (2018). Social protection governance: A conceptual framework. Geneva: International Labour Office.
5. World Bank. (2014). The State of Social Safety Nets 2014. Washington, DC: World Bank.
6. European Commission. (2017). Social Protection in the European Union: Achievements and Challenges. Brussels: European Commission.
7. Krosnick, J. A. (1988). The Role of Attitude Importance in Social Evaluation: A Study of Policy Preferences, Presidential Candidate Evaluations, and Voting Behavior, Journal of Personality and Social Psychology, 1988, p. 397-416, <https://doi.org/10.1037/0022-3514.55.3.397>
8. Creswell, J. W. (2014). Research Design: Qualitative, Quantitative, and Mixed Methods Approaches, Journal: Sage Publications, 2014, p.304, <https://us.sagepub.com/en-us/nam/research-design/book237350>
9. United Nations Department of Economic and Social Affairs (UNDESA).2020 “United Nations E-Government Survey”. <https://publicadministration.un.org/en/Research/UN-e-Government-Surveys>
10. United Nations Department of Economic and Social Affairs (UNDESA). 2020 “Digital Government in the Decade of Action for Sustainable Development: United Nations E-Government Survey 2020” <https://publicadministration.un.org/en/Research/UN-e-Government-Surveys>
11. Hair, J.F. Jr., Black, W.C., Babin, B.J., Anderson, R.E., & Tatham, R.L. Multivariate Data Analysis, 6th edition, 2019, Page: 136-206, <https://www.amazon.com/Multivariate-Data-Analysis-Joseph-Hair/dp/0134857968>
12. Kutner, M.H., Nachtsheim, C.J., Neter, J., and Li, W.(2005). Applied Linear Statistical Models, 5th edition, p:121-163, <https://www.amazon.com/Applied-Linear-Statistical-Models-Kutner/dp/007310874X>
13. Pearson, K. (1900) On the criterion that a given system of deviations from the probable in the case of a correlated system of variables is such that it can be reasonably supposed to have arisen from random sampling, Philosophical Magazine, 1900, p.157-175 <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/14786440009463897>
14. Brouwer, I. D., & Wood, E. J. (2018). Digital technologies and the financing of social protection in developing countries, Development Policy Review, 2018, p.325-345, <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.1111/dpr.12318>
15. UNDP (United Nations Development Programme). (2021). Digital Social Protection: A Key Building Block for Inclusive Digital Economies, United Nations Development Programme, 2021, p.1-24, [https://www.undp.org/content/dam/undp/library/corporate/Inclusive%20markets/UNDP-IDS\\_Digital-Social-Protection.pdf](https://www.undp.org/content/dam/undp/library/corporate/Inclusive%20markets/UNDP-IDS_Digital-Social-Protection.pdf)



## МЕHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz>

### МЕHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI 2023-yil Maxsus son

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ**

**LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL**

**laboreconomics.uz**

*Muharrirlar:*  
*Yaxshiyev H.T.*  
*Matxo'jayev A.O.*

*Musahhih:*  
*Kamilova D.J.*

*Tehnik muharrir:*  
*Mirzayev J.O.*

Litsenziya № 2537 08.02.2022 y. Bosishga ruxsat etildi 19.10.2023.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog'i 31,6. Raqamlı bosma.  
Adadi 50 nusxa. №16/10-2023 - sonli buyurtma.

"Zarafshon Foto" MCHJning matbaa bo'limida chop etildi.  
100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Shahriobod ko'chasi, 3-uy.

И ЎНАЛИШ: ГЛОБАЛ  
ИКТИСОДИЁТНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ  
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА  
ИСТИКБОЛЛИ ЙЎНАЛИШЛАРИ.  
“Глобал ва миллий  
иктиносидёт трендлари”  
номли конференция

CONFERENCE “GLOBAL  
AND NATIONAL ECONOMIC  
TRENDS” ОСТОВЕР

# 1st DIRECTION:

TRENDS AND PROSPECTIVE  
DIRECTIONS OF GLOBAL  
ECONOMIC DEVELOPMENT.

CONFERENCE “GLOBAL  
AND NATIONAL ECONOMIC

# TRENDS”

“IFRS”

CONFERENCE “GLOBAL  
AND NATIONAL ECONOMIC  
TRENDS”

“IFRS”

НОМЛИ

КОНФЕРЕНЦИЯ

PARALLEL CONFERENCES

“NEW2AN  
AND ICDFDS”

TASHKENT  
STATE  
UNIVERSITY OF  
ECONOMICS

- Conditions for improvement of the business environment
- Corporate Account
- Institutional problems
- Training personnel for business
- Business environment
- Digital technologies



100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.

+998 99 881-86-98

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz

# ФОРУМ

- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agricultural Development

- Digitalization
- Green economy
- Environmental protection
- Artificial intelligence
- Artisanal production